

**KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI INGLIZ TILIDA OLIB BORILISHINING  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI**

Buriboyev Rustam

o'qituvchisi, Jizzax Prezident maktabi

Oxirgi paytlarda mamlakatimizda chet tillarini o'qitishda tizimli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limning quyi bug'inidan yuqori qatlampacha ya'ni: maktabgacha ta'lim, umumiyl o'rta ta'lim, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar o'rtasida chet tillarni o'qitish va o'rganishda tizimli hamkorlikni oshirish bugungi rivojlanayotgan davr talabiga aylanmoqda. Shu sababdan bugungi kunda aksariyat ota-onalar o'z farzandlariga chet tilini o'rgatishni asosiy maqsad qilib qo'ymoqdalar. Hattoki maktab yoshigacha bo'lgan ayrim bilimdon va zukko bolalar mifikatga borgunga qadar rus tili va ingiliz tilidan dastlabki tushunchalarni egallab mifikatga borgach bu bilimlarimi mustahkamlab olmoqda.

Shunday rivojlanayotgan bir davrda magistratura mutaxassisligini bitiruvchi magistrleri kamida ikkita chet tillarini bilish kerakligi bejizga emasligini tushunib yetish mumkin. Bu o'z navbatida oliy ta'lim bitiruvchilariga o'zining mutaxassislik fanlarini o'rganish bilan bir qatorda chet tillardan xalqaro sertifikatlarni olish lozimligini ham ko'rsatmoqda.

Bu jarayonni birdan amalga oshirib bo'lmaydi albatta. Bu jarayon tizimli ravishda bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ta'lim muassasalarida chet tili fanini o'qitishga qo'yiladigan talabni oshirish lozim. Ayniqsa, oily ta'lim tizimining magistratura bosqichida chet tilini o'qitishni takomillashtirish kerak. Barchamizga ma'lumki aksariyat magistratura mutaxassisligini bitiruvchi magistrler oliy ta'lim muassasida pedagogikn faoliyat olib borishni maqsad qilgan. Demak bo'lajak professor-o'qituvchi sifatida xalqaro ilmiy konferensiyalarda o'zining mutaxassisligiga oid bilimlarini ingliz tilida ravon ifoda eta olishi lozim. Bundan tashqari jahonda bo'layotgan ilmiy o'zgarishlardan xabardor bo'lishi uchun ham chet tilini bilgani maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim tizimining magistratura bosqichida ingliz tilini o'qitish bo'yicha ikki semestr va 120 auditoriya soati ajratilgan. Bu dars jarayonlarida o'quv dasturi asosida "Dissertation, universe, mission and vision, science" mavzulari o'rganildi. Bu mavzular asosan umumiyl disertatsiya ishiga va ilmiy fikrlashga yo'naltirilgan.

Lekin mutaxassislik fanlariga oid terminlarni kamdan-kam uchratish mumkin. Ingliz tili darsini mutaxassislik fanlariga bog'langan holda o'rganilishi va amaliyotga joriy qilinishi yanayam ko'proq natija beradi. "Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi" mutaxassisligida o'tiladigan kompyuter grafikasi fani ingliz tilida olib borilsa yana ham yaxssiroq va qiziqarliroq bo'ladi. Zero bugungi zamonaiviy kompyuterlarimizni ko'pchiligi ingiliz tilidagi dasturlar asosida programmalashtirilgan.

Kompyuter grafikasi nafaqat ilmiy xodimlar, balki rassomlar, turli soha loyihachilari, reklama bilan shug'ullanadigan mutaxassislar, Internet sahifalarini yaratish, o'qitish jarayoni uchun

va boshqa sohalarda muhim rol o'ynamoqda. Uning ayniqsa poligrafiya sohasida qo'llanilishi keyingi paytlarda rang-barang, suratlari adabiyotlar, o'quv-qo'llanmalari, badiiy asarlarning paydo bo'lishida yuksak bezash texnikasidan foydalanishni taqazo qilmoqda. Diqqatni o'ziga jalg qiluvchi videoroliklar, Internet sahifalarini yaratishni kompyuter grafikasisiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi. Kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dasturlar sirasiga bir qancha dasturlarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, Microsoft Paint, Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Corel Draw, Macromedia va Adobe Freehand, Adobe InDesign, Adobe ImageReady, Macromedia va Adobe Flash, Discreet va Autodesk 3ds Max, Cinema 4d, Alias va Autodesk Maya, LightWave, Adobe Brush va hokazolardir. Ushbu dasturlarda kompyuter grafikasiga oid ishlarni amalga oshirish mumkin. Ba'zilarida oddiy rasm chizish mumkin bo'lsa, ba'zilarida uylar proyektlari, ba'zilarida esa uch o'lchamli modellashtirish va hattoki to'rt o'lchamli modellashtirish mumkin bo'ladi. O'z –o'zidan ma'lum kompyuter grafikasi fani grafik dasturlarda yozishni va chizishni o'rgatadi. Grafik dasturlarning eng ommabop turi biri AutoCad dasturidir va bu dasturning o'zbekcha talqini yo'q. Shuning AutoCad dasturidagi o'rgatishni ingliz til olib borish, talabalarning foydalaniladigan asboblarni inglizcha yangi lug'at yodlaydi hamda ingliz tilini amaliy jarayonda o'rganganlarni mustahkamlaydi. Hammamizga ma'lumki, chet tillarni o'rganishda amaliyatga bog'lab o'rganish kutilgan natijani beradi.

Bundan tashqari 2022-2023-o'quv yilidan boshlab magistratura va oliy ta'limdan keying ta'lim uchun kirish imtihonlarida chet tili sertifikati kamida B2 daraja talab qilinadigan bo'ldi. Buning natijasida talabalar uchun kompyuter grafikasi fanini ingliz tilida o'tilishi uchun yana bir turtki bo'lishiga zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rixsiboyev T. Kompyuter grafikasi.-T.:2006, 168 b.
2. А.Федоринков, А.Кимаев. AutoCAD 2002, М.:“DESS SOM”, 2002.
3. Романичева Э.Т. AutoCAD верс.12,13,14. М.: – 1997.
4. Kuchkarova D.F., Pulatova X.A., Xaitov B.U. “Kompyuter grafikasi”. Metodik ko'rsatma. Т.: 2009.
5. Соколова Т.Ю. AutoCAD 2009. Учебный курс(+CD).-СП.:Питер, 2008.- 576 с.
6. Vohidov M.M., Mirzayev Sh.R. Binolar va inshootlar konstruksiyalari. Т.:Mehnat, 2003 y., 183 bet.
7. Vohidov M.M. Sanoat inshootlari fanidan «AutoCad» dasturi yordamida inshootlarning loyihalarini kompyuterda ishlab chiqish. Buxoro, Bux OOvaYeSTI, 2005 y., 104 bet.